SAMARQAND VILOYATI PAYARIQ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Payariq sh, Samarqand ko‘chasi, 52-uy.

2022 - yil 20 - iyul 187-7-100-Q/22 Payariq tuman hokimligi

Tumanda 2023-yilda original, elita va keyingi avlodlarga mansub urug‘lik boshoqli don yetishtirish huquqiga ega bo‘lish uchun tanlov o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-106-sonli Qarorining 7-bandida ixtisoslashtirilgan hududlarda tanlov asosida, uzoq muddatga urug‘chilik xo‘jaliklari tanlash belgilangan.

Shundan kelib chiqib, tumanda urug‘chilikka ixtisoslashtirilgan hududlardan chiqmagan holda, 5 yil muddatga urug‘lik don yetishtiruvchi qishloq xo‘jalik korxonalarini tanlab olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi “Original, elita va keyingi avlodlarga mansub urug‘lik qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish huquqiga ega bo‘lish uchun fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlari o‘rtasida tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi 641-sonli Qarorining 1-ilovasidagi Nizom talablariga muvofiq joriy yilning 15-iyulidan 5 avgustigacha qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘rtasida tender tanlovi o‘tkazish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respulikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-106-sonli Qarori hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 15-iyuldagi 02/23-04/4667-sonli telefaks-xabarnomasi va Samarqand viloyati hokimligining joriy yil 18-iyuldagi № 05-05/226-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yil hosilidan original, elita va keyingi avlodlarga mansub urug‘lik g‘alla yetishtirish huquqiga ega bo‘lish uchun subyektlar o‘rtasida tanlov o‘tkazilsin.

2. Tumanda original, elita va keyingi avlodlarga mansub boshoqli don ekinlari urug‘larini yetishtirish huquqiga ega bo‘lish uchun tender tanlovlarini o‘tkazadigan tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

-2022-yil 8-avgust kuni tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi binosida 2023-yil hosilidan urug‘lik g‘alla yetishtirish huquqini qo‘lga kiritish uchun subyektlar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan tender tanlovi to‘g‘risidagi e’lon 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman komissiyasi (N.Ravshanov)ga:

- tanlovda qatnashish istagini bildirgan subyektlarning hujjatlarini joriy yilning 15-iyulidan 5-avgustga qadar belgilangan tartibda qabul qilish va belgilangan tartibda baholash;

-tanlovlarda qatnashadigan urug‘chilikka ixtisoslashgan hududlardagi subyektlarning haqiqiy holatini o‘rganish;

- tuman tanlov komissiyasiga topshirilgan hujjatlar asosida reyting ballarining haqqoniy quyilishini nazorat qilish;

2-ilovaga muvofiq tanlov to‘g‘risida e’lon berilishini, da’vogar subyektlarning tanlov komissiyasi tomonidan joriy qilingan jadvallar asosida hujjatlar to‘plamini o‘z muddatlarida qabul qilinishi va ushbu hujjatlarni haqqoniyligini ta’minlash;

-to‘plangan hujjatlar asosida tuman tanlov komissiyasi tomonidan urug‘lik g‘alla yetishtirish huquqiga ega bo‘lgan subyektlar ro‘yxatini tuman hokimligi tomonidan tasdiqlangan holda viloyat tanlov komissiyasiga taqdim etish;

- urug‘lik g‘alla yetishtirish huquqiga ega bo‘lgan subyektlarning hujjatlar to‘plamini (2 nusxada) tayyorlab, 2022-yil 10-avgustiga qadar Urug‘chilikni rivojlantirish markazining Samarqand viloyati boshqarmasiga taqdim qilish vazifalari topshirilsin.

4. Tanlov komissiyasi kotibi (Q.Xo‘jamqulov)ga:

- tanlovda qatnashish istagi bo‘lgan ixtisoslashgan hududlardagi subyektlarni xabardor qilish maqsadida matbuot va ommaviy axborot vositalari orqali tanlovni e’lon qilish;

- tanlov yakuni bo‘yicha yig‘ilish qarori qabul qilib, tasdiqlash uchun tuman hokimligiga kiritish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari M.Xusainov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Z.Ergashev**

Payariq tuman hokimining
2022 yil 20 iyuldagi
187-7-100-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Original, elita va keyingi avlodlarga mansub urug‘lik g‘alla yetishtirish huquqiga ega bo‘lish uchun fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlari o‘rtasida tanlov o‘tkazish bo‘yicha tuman ishchi guruhining namunaviy

T A R K I B I

№	Ism va familiyasi	Lavozimi
1	M.Xusainov	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Ishchi guruh rahbari
2	N.Ravshanov	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, Ishchi guruh rahbarining o‘rinbosari
a’zolari		
1	A.Valiyev	Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi raisi
2	M.Alibekov	Agrosanoat majmui ustidan nazarat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi boshlig‘i
3	J.Onorboyev	O‘simliklar karantini va himoyasining tuman filiali boshlig‘i
4	A.Saydullayev	Samarqand grein klaster MChJ
5	B.Shodmonov	Payariq yangier tekstil MChJ
6	Z.Jozilov	Tuman irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i
7	Q.Xo‘jamqulov	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi mutaxassisi, ishchi guruh kotibi

Payariq tuman hokimining
2022 yil 20 iyuldagi
187-7-100-Q/22-son qaroriga
2-ilova

E’LON

G‘alla yetishtiruvchi xo‘jaliklar diqqatiga!

2022-yilning 8-avgust kuni Payariq tumani Qishloq xo‘jaligi bo‘limi binosida 2022-yil hosilidan urug‘lik g‘alla yetishtirish huquqiga ega bo‘lish uchun subyektlar o‘rtasida tender tanlovi bo‘lib o‘tadi.

Tanlovda qatnashish istagini bildirgan fermer xo‘jaliklar rahbarlari quyidagi hujjatlar to‘plamini 2 nusxada tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limida tuzilgan tanlov komissiyasiga 5-avgustgacha taqdim qilishlari so‘raladi.

1. Fermer xo‘jaligi rahbari nomidan ariza;
2. Fermer xo‘jaligi rahbari nomidan tilxat;
3. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limining ma’lumotnomasi;
4. Fermer xo‘jaligi, uning rahbari va ishchi xodimlari to‘g‘risida ma’lumotnoma;
5. Tuman irrigatsiya tizimi bo‘limi ma’lumotnomasi;
6. Viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasining tuman bo‘limi tomonidan berilgan ma’lumotnoma;
7. Fermer xo‘jaligi rahbarining mutaxassisligi va ma’lumoti to‘g‘risida hujjat (dimlom nusxasi)
8. Fermer xo‘jaligi rahbarining qishloq xo‘jaligi sohasidagi ish stajini tasdiqlovchi hujjatlar (mehnat daftarchasi va boshqa hujjatlar)
9. Fermer xo‘jaligida ishlayotgan urug‘chi hosilotning ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjat (diplom nusxasi va mehnat daftarchasi)
10. Majburiyatdan ozod pul mablag‘i to‘g‘risida tegishli bank tomonidan berilgan ma’lumotnoma;
11. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyaning tuman bo‘limi boshlig‘i tomonidan berilgan ma’lumotnoma hamda texpasport nusxasi;

12. So‘ngi 3 yil ichidagi g‘alla hosildorligi bo‘yicha kontraktatsiya shartnomasining bajarilishi bo‘yicha don korxonalari yoki g‘allachilik klasterlari tomonidan berilgan ma’lumotnoma;

Hujjatlarni qabul qilish 2022-yilning 5-avgust kuni 14:00 da to‘xtatiladi. Qo‘shimcha ma’lumotlar uchun: 93-236-37-70, 95-778-25-71 telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin.